

OTB Surxondaryo viloyatidan o'tuvchi avtomobil yo'llarini ta'mirlashga kredit ajratmoqda

Osiyo taraqqiyot banki Surxondaryo viloyatidan o'tuvchi 111 kilometrlik avtomobil yo'llarini ta'mirlash uchun 183,8 mln dollar miqdorida kredit mablag'larini ajratadi .

Ushbu kredit mablag'lari «4P105 "Darband - Boysun - Elbayon" avtomobil yo'lining 5–7 km va 4P100 "Manguzar - Jaraqo'rg'on - Bandixon - Oltinsoy - Denov" avtomobil yo'lining 128–174 km qismlarini rekonstruksiya qilish» loyihasini amalga oshirishga sarflanadi.

Loyihani amalga oshirish muddati 6 yil (4 yil imtiyozli davrini inobatga olgan holda 2022–2027 yillar) etib belgilandi.